

XALQ TA'LIMI

ISSN 2181-7839

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

Muassis:

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi

PUBLIC EDUCATION

SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL
MINISTRY OF PUBLIC EDUCATION OF THE
REPUBLIC OF UZBEKISTAN

2021

2-son
(Maxsus)

Jurnal 1918-yil dekabr oyidan chiqa boshlagan
O'zMAA tomonidan 2013-yil 4-martda qaytadan ro'yxatga olinib, 0104-raqamli guvohnoma berilgan.

TOSHKENT



TAHRIRIYAT

- 4** Oliy ta'limda kredit-modul tizimi – ta'limning mehnat bozoriga transformatsiyasidir



TA'LIM VA TARBIYA NAZARIYASI

- Sh. Mardonov, O. Jabborova 6** Ta'lim jarayoniga innovatsiyalarni tatbiq qilishning tashkiliy-pedagogik jihatlari
- A. Abdullayev 9** Boshlang'ich ta'limda jismoniy tarbiya darslarini sog'lomlashtirishga yo'naltirish metodikasi
- D. Maxmudova 12** Maktabgacha yoshdagi bolalarni estetik tarbiyalash muammosiga nazariy yondashuvlar
- M. Musurmonova 16** Umumiy o'rta ta'lim maktablari boshlang'ich sinflarida ta'lim sifatini oshirishda "Matematika" fanining ahamiyati
- R. Musurmanov, M. Musurmonova 20** Umumiy o'rta talim maktablarida pedagogik konfliktlar va ularning profilaktikasi muammolari xususida
- F. Ochilov 23** Umumiy o'rta ta'lim maktablari boshlang'ich sinf o'quvchilarining amaliy faoliyatini takomillashtirishda "Atrofimizdagi olam" va "Tabiatshunoslik" darslarining ahamiyati
- B. Axmadaliyev 27** Umumiy o'rta ta'lim maktablari boshlang'ich sinf o'quvchilarining estetik bilimlarini va ijodkorlik qobiliyatlarini shakllantirishda texnologik ta'lim darslarining ahamiyati
- G. Tojiboyeva, Z. Suleymanova 31** Boshlang'ich sinf o'quvchilari nutqini o'stirishda didaktik o'yinlarining roli
- U. Shermatova 35** Millat ruhini saqlash yo'lida
- F. Atabekov 39** Bola tafakkurining rivojlanishida jismoniy tarbiya mashg'ulotlarining o'rmi
- O. Jabborova 43** Yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda boshlang'ich ta'limni rivojlantirishning pedagogik muammolari
- M. Achilova 46** Shaxsning jismoniy, psixologik rivojlanishida pedagogikaning roli
- D. Po'latova 50** Xalq ta'limi tizimida "Barkamol avlod" maktablari
- Z. Umarova 54** Ta'lim muassasalaridagi nizolarni hal qilish



TA'LIM VA TARBIYA METODIKASI

- M. Abdullayeva 57** Pedagogik va tarbiyaviy ishlar metodikasi
- G. Kuzmanova, B. Alimov, N. Beketov 61** Uchinchi tartibli tenglamalar
- X. Gulyamova 65** Umumiy o'rta ta'lim maktablarining boshlang'ich sinflarida o'qish metodikasi
- R. Nosirova 69** Maktabgacha ta'limda metakognitiv ko'nikmalarni shakllantiruvchi metodlarni qo'llash orqali bolalarni maktabga tayyorlash



ZAMONAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARI

- D. Mutalova 73** Ta'lim klasteri talabalarni innovatsion kasbiy tayyorlashning innovatsion asosi sifatida
- L. Boliyeva 76** Oliy ta'limda "Steam" texnologiyasidan foydalanishning didaktik imkoniyatlari

Gulmira TOJIBOYEVA,
Chirchiq davlat pedagogika instituti
"Boshlang'ich ta'lim" kafedrası katta o'qituvchisi

Zaure SULEYMANOVA,
Chirchiq shahar 17-umumiy o'rta ta'lim maktabining boshlang'ich sinf o'qituvchisi

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARI NUTQINI O'STIRISHDA DIDAKTIK O'YINLARNING ROLI

Annotatsiya

Maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqini o'stirishda didaktik o'yinlarning roli ochib berilgan. Bolalarning nutqini o'stirishda boshlang'ich ta'limda zamonaviy usullarni qo'llashga, zamonaviy o'quv texnologiyalarni joriy etishga alohida e'tibor qaratilishi izohlanadi.

Kalit so'zlar. Boshlang'ich ta'lim, nutq, zamonaviy o'quv texnologiyalar, didaktik o'yinlar, diksiya, mantiqsiz izoh, integratsion mashg'ulot, faollashuv.

В статье раскрывается значение дидактических игр в развитии речи учащихся начальной школы. Объясняется, что в развитии детской речи особое внимание уделяется использованию современных методик в начальном образовании, внедрению современных технологий обучения.

Ключевые слова. Начальное образование, речь, современные технологии обучения, дидактические игры, дикция, нелогичная интерпретация, интеграционное обучение, активация.

The article reveals the importance of didactic games in the development of the speech of primary school students. It is explained that in the development of children's speech, special attention is paid to the use of modern methods in primary education, the introduction of modern teaching technologies. The importance of didactic games in the process of children's communication is emphasized.

Key words. Primary education, speech, modern teaching technologies, didactic games, diction, illogical interpretation, integration learning, activation.

Boshlang'ich ta'lim umumiy o'rta ta'limning poydevori hisoblanadi. Boshlang'ich sinfda bolaning muvafaqqiyatli o'qishida nutqning rivojlanganlik darajasi muhim ahamiyatga ega. Maktabga ilk bor kelgan bolaning nutqiy qobiliyatlari yuqori darajada rivojlanganligini quyidagi mezonlar asosida aniqlash mumkin:

- ona tili adabiy me'yorlari va qoidalariga ega bo'lish, o'z fikrlarini bayon qilishda va har qanday turdagi matnlarni tuzishda lug'at va grammatikadan erkin foydalanish;
- kattalar va tengdoshlari bilan aloqa qilish qobiliyati: savol berish, tinglash, javob berish, bahslashish, tushuntirish;
- "nutqiy odob-axloq qoidalari"ni bilish, vaziyatga qarab ulardan foydalanish qobiliyati;
- savodxonlik va yozuv bo'yicha dastlabki bilimlar.

Boshlang'ich sinf o'qituvchilari ota-onalar bilan bolaning nutqiga qo'yiladigan talablar mavzusida savolnomalar o'tkazishlari, suhbatlar uyushtirishlari maqsadga muvofiqdir.

Yaxshi o'zlashtira olmaydigan 1-sinf o'quvchilarining nutqida noaniq talaffuz (diksiya), sodda gaplardan iborat nutq, lug'at kambag'alligi, mantiqsiz izohlar, biryozlama javoblar (ha, yo'q) kabi kamchiliklar uchraydi. Shu sababli bolalarning nutqini o'stirishda boshlang'ich ta'limda zamonaviy usullarni qo'llashga, zamonaviy o'quv texnologiyalarini joriy etishga alohida diqqat qilinadi. An'anaviy usullar bilan bir qatorda noan'anaviy, o'yin usullarining qo'llanishi, integratsion mashg'ulotlarning tashkil etilishi, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ta'limda qo'llash kabilar bunga misol bo'la oladi.

Bolalarning muloqotga kirishish jarayonida didaktik o'yinlar muhim ahamiyat kasb etadi. O'qituvchi o'quvchi bilan muloqotga kirishganida uni yangi so'z va tushunchalar mohiyatini tushuntirishi tafakkurning rivojlanishi uchun muhim omil hisoblanadi.

"Bola uchun o'yin – voqelik, – deb yozgan edi K.D.Ushinskiy, – binobarin, tevarakatrodagi voqelikdan ko'ra ancha qiziqroq voqelikdir. U bolaga tushunarli bo'lgani uchun ham qiziq, ya'ni unda qisman bo'lsa-da bolaning o'zi yaratgan narsa bor". Didaktik o'yinlarda bilish jarayoni o'yinlar bilan bevosita bog'lanib ketadi. Didaktik o'yin o'yinash orqali bola bevosita bilim olishga kirishadi.

Didaktik o'yinlarni boshqarishda muayyan qoidalar mavjud:

- bolaning o'yinga qiziqishini uyg'otish: surprizli holatning mavjudligi, pedagogning xayrxohligi, ertak qahramonlarining qatnashuvi;

- o'yin uchun shart-sharoit yaratish: muvofiq didaktik material va o'yinchoqlar, joy hozirlash;

- har bir bolaning faollashuvini ta'minlash.

Didaktik o'yinlar orqali bolalar faoliyati mustahkamlanadi, hayot haqidagi tasavvurlari, jonli va jonsiz tabiat haqidagi o'y fikrlari, turli buyum predmetlarning ko'rinishi, nomi, rangi, shakli, tuzilishi, o'simlik va hayvonot olamidagi rang-baranglikni anglaydilar. O'yin jarayonida bolalar turli qiyinchiliklarni, har qanday to'siqlarni yengib o'tishga harakat qilib, o'rganib boradilar.

O'yin qadim zamonlardan mavjud bo'lgan va u ko'pgina pedagoglar, psixologlar, olimlar diqqatini o'ziga tortib kelgan. Bunday o'yinlar bolalarga nafaqat quvonch, zavq, huzur, rohat va xursandchilik bag'ishlaydi, balki cheksiz qiziqish uyg'otadi. Mazkur faoliyat yordamida ular bosqichma-bosqich ijtimoiylashadilar. O'yinlar orqali bolalarda barqaror odatlar, harakat me'yorlari shakllanib boradi. O'yinlarga xos bo'lgan bir qator didaktik holatlar mavjud. Ular quyidagilar:

- pedagogikada o'yinlar turli yoshdagi bolalarning mustaqil faoliyatini rivojlantirish shakli sifatida namoyon bo'ladi;

- o'yinlar bolalar faoliyatining erkin shakli bo'lib, mazkur jarayonda ular atrofolamni anglaydilar, o'rganadilar, shaxsiy ijodiy faoliyatlari uchun qulay sharoitga ega bo'ladilar, mustaqil bilish va o'z faoliyatlarini jadal tarzda namoyon qilish imkoniyatini qo'lga kiritadilar;

- o'yinlar bolalar uchun rivojlanish amaliyoti hisoblanadi;

- o'yin jarayonida bolalar aql-idrokka tayangan holda ijod qiladilar, o'z imkoniyatlari va ijodiy faoliyatlarini namoyon etadilar.

Didaktik o'yinlardan foydalanish samarali natija berib, so'zlashish xususiyatlarini rivojlantirishga sabab bo'ladi. O'yin shunday kuchga egaki, u bolalarning kayfiyatini ko'taradi, ruhiy kuch bag'ishlaydi.

Olima N.P.Anikeeva didaktik o'yinlarga yangicha yondashadi. Uning fikricha, didaktik o'yinlar bolalar bilan olib boriladigan ta'lim-tarbiyaning asosiy komponentlaridan biridir. Didaktik o'yinlarning samaradorligi, birinchi navbatda, bolaning qiziqishlariga

mos kelishi, bolaga quvonch bag'ishlashi, bu o'yinlarda bola o'zini erkin tutishi, o'zining faolligini ko'rsatish imkoniyatini berishi lozimligini e'tirof etadi. Didaktik o'yinlardan foydalanishda quyidagi metodik talablarni e'tiborga olish talab qilinadi:

1. O'yinlardan mashg'ulot va mashg'ulotdan tashqari mashg'ulotlar jarayonida foydalanish mumkin. Buning uchun bolalarni qiziqtiradigan va ularning yosh xususiyatlariga mos keladigan o'yinlarni tanlab olish zarur.

2. Mashg'ulotlar jarayonida o'yinlarga 5-10 daqiqa vaqt ajratish mumkin.

3. Har bir o'yinni o'tkazishda avval unga puxta tayyorgarlik ko'rilishi hamda mashg'ulot o'z mazmuni bilan uzviy bog'langan bo'lishi lozim.

Nutq o'stirish uzoq va mukammal jarayon. U kishidan muntazam mehnatni va o'z ustida ishlashni talab qiladi. Og'zaki nutq malakalarini o'stirish uchun o'qitish jarayonida har xil didaktik o'yinlarni qo'llash, mashg'ulotni qiziqarli va sevimli mashg'ulotga aylantirishi aniq. Didaktik o'yinlar orqali bolalar o'zlarini ancha erkin tutadilar, hatto uyatchan bolalarni ham ushbu o'yinlarda qatnashishga undaydi. Didaktik o'yinlarni so'z boyligini o'stirish jarayonida qo'llash samarali natija beradi. Ammo bu o'yinlarni qo'llashdan oldin pedagog bolalarga o'yindan ko'zlangan maqsadni, o'yin qoidalarini aniq tushuntirishi va o'tilayotgan mavzu bilan chambarchas bog'lashi kerak.

Didaktik o'yin bolalarning aqliy faoliyatini rivojlantirishning qimmatli vositasi bo'lib, u aqliy jarayonlarni faollashtiradi, o'quvchilarda o'quv jarayoniga katta qiziqish uyg'otadi. Unda bolalar katta qiyinchiliklarni bajonidil yengishadi, kuchli tomonlarini mashq qiladi, qobiliyat va ko'nikmalarni rivojlantiradi. Bu har qanday o'quv materialini maftunkor qilishga yordam beradi, o'quvchilar uchun quvonchli ish kayfiyatini yaratadi va bilimlarni o'zlashtirish jarayonini osonlashtiradi.

Didaktik o'yinlar bolalarning tasavvuri, zehni, xotirasi va narsa-buyumlarga bo'lgan e'tiborini oshiradi. Bolalarga til o'rgatishda turli o'yin turlaridan foydalanish ijobiy samara beradi. Masalan, yakka-individual, juftli, guruhli, ommaviy o'yinlar yoki rolli, tashkiliy kommunikativ, ijodkorlikka yo'naltiruvchi, intellektual musobaqaga asoslangan, didaktik, kompyuterli o'yinlar shular jumlasiga kiradi.

O'yinda qatnashgan bolalarni maqtash, rag'batlantirish mumkin. Didaktik o'yinning xususiyati shundaki, unda o'qituvchi bilan bolalar munosabati bevosita o'yin tarzida kechadi. Didaktik o'yinlar mashg'ulotlarning qiziqarli o'tishini ta'minlaydi. Mashg'ulot davomida bolalarni o'zaro muomala qilish malakalarini oshirish, ko'rish, eshitish, tahlil qilish, fikrlash qobiliyatlarini va hamkorlikda ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishda quyidagi didaktik o'yinlarni misol tariqasida keltirish mumkin:

"Ko'proq nom ber". Bolalar so'z boyligini faollashtirish, diqqatni rivojlantirish.

O'yin jarayoni. Bolalar bir qatorda turishadi va o'z navbatida, ularni o'rab turgan obyektlarni nomlash taklif qilinadi. So'zni aytgan bola oldinga qadam tashlaydi. So'zlarni to'g'ri va aniq talaffuz qilgan va ko'proq buyumlar sonini takrorlamasdan birinchi nomlagan g'olib hisoblanadi. O'yin tematik bo'lishi mumkin.

"Ajoyib xalta". Taktil hissiyotlarini, sifatlar lug'atini rivojlantirish.

O'yin jarayoni: o'qituvchi bolalarga turli xil materiallardan o'yinchoqlar solingan xaltani taklif qiladi. Bola ko'zini yumib xaltadan o'yinchoq chiqaradi va narsaning nimadan yasalganini aytadi. Tavsiya etilgan xususiyatlar: yog'och, plastmassa, mo'yna, paxta, kauchuk, metall, shisha, loy va boshqalar.

"Mehrli nomla". Bolalarni qo'shimchalar yordamida so'zlarni shakllantirishga o'rgatish. Jihoz: koptok.

O'yinning borishi: o'qituvchi so'z birikmasini aytadi va koptokni bolaga uloqti-

radi. O'quvchi ko'ptokni qaytarib berishida so'zlarning qo'shimchasini qo'shib iborani o'zgartirishga taklif qilinadi. Misol: Makkor tulki – Makkorgina tulkicha. Oq quyon – op-poq quyoncha. Toza botinka – tozagina botinkacha.

“Tanib ol”.– predmetni, obyektни sifatlar, epitetlar guruhi yoki harakat bildiruvchi so'zlari guruhi bo'yicha aniqlash. Boshlang'ich nuqta sifatida tavsiya etilgan so'zlar bolaning hissiy va amaliy tajribasi bilan bog'liq bo'lishi kerak. Masalan, “yashil, jingalak, ingichka, oq poyali” – qayin; “uchqunlar, yerni isitadi, zulmatni tarqatadi” – quyosh. Astasekin o'yin murakkablashtirilib, nafaqat bolaning so'z boyligini oshirishi, balki kerakli so'zni osongina topishga o'rgatishi zarur. Bola qiyinchiliklarsiz kerakli so'zni xotiradan “tortib olishi”, o'yinni turli talqinlarda o'tkazish maqsadga muvofiq (“Nima bo'ladi?”, “Bu nima qiladi?”). Kelajakda bunday o'yinlarning asosiy qoidasi – so'zlar takrorlanmasligi.

“So'z qo'shish”. O'quvchilar xotirasini rivojlantirish, ularning obyektlarni guruhlariga ajratish qobiliyatini o'stirish. Bu turli xil versiyalarda amalga oshirilishi mumkin.

Variant 1. O'qituvchi o'yinni boshlaydi: “Men savatga olma solaman”. Bola davom etadi, avval aytilganlarning hammasini takrorlaydi va o'z so'zini qo'shadi, o'yinning birinchi ishtirokchisi tomonidan nomlanganiga mos keladi: “Men savatga qo'ydim olma va limon”. Keyingi o'yinchi gapni takrorlaydi va o'zidan bir so'z qo'shadi.

Variant 2. So'zlarni qo'shish ko'rsatilgan harfga asoslanadi yoki alifbodagi harflar ketma-ketligidan foydalaniladi.

“Qattiq – yumshoq” didaktik o'yini. Qattiq va yumshoq belgilarga ega so'zlarni farqlash. Bolalar ikki jamoaga bo'linadi. Bir jamoa “Tosh”, ikkinchisi “Paxta” deb nomlanadi. Agar qattiq belgili so'z o'qilsa, “Tosh” guruhi turadi, yumshoq belgili so'z o'qilsa, “Paxta” guruhi turadi. Guruhlar qatnashchilaridan vaqtida payqamaganlar yoki adashib turganlar o'yinni tark etadi. O'yin bitta qatnashchi qolgunga qadar davom etadi. Misol: taxta devor, loysuvoq va hokazo.

Didaktik o'yinlar mashg'ulotlar davomida o'tilgan mavzuga bog'lanib, ulardan mashg'ulotni mustahkamlash qismida yoki dam olish daqiqasida foydalaniladi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, didaktik o'yinlar bolalarning psixik jarayonlarini rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi. Bolalarning o'qishga bo'lgan qiziqishlariga ijobiy ta'sir ko'rsatib, intellektual salohiyatini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Аникеева Н.П. *Воспитание игрой: книга для учителя.* – М.: Просвещение, 1987 г.
2. Бахарева Н.Н. *Картотека дидактических игр по развитию речи.* <https://nsportal.ru/>.
3. Ушинский К.Д. *Человек как предмет воспитания.* – Собр. Соч. М. – Л., 195, т. VIII,– С. 439-440.